

**Kuchli fuqarolik jamiyati – demokratik jamiyat asosi**

Mirzaliyeva Zarinabonu Jahongir qizi Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat  
Pedagogika Instituti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada hozirda dolzarb bo'lgan mamalakatimizda fuqarolik jamiyatidan kuchli demokratik jamiyatga bosqichma-bosqich o'tish prinsiplari va fuqarolik jamiyatining institusional tuzilmasini tashkil etish ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** demokratik jamiyat, konsepsiyalar, o'n mingga yaqin, o'zbek modeli, institusional tuzilma, fuqarolar yig'ini, demokratik islohotlar.

O'zbekistonda amalga oshirilib kelinayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy maqsadi barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega demokratik huquqiy davlat qurish, inson oliy qadriyat hisoblangan, uning huquqlari, manfaatlari va erkinligi ta'minlab, salohiyatini ro'yobga chiqaeish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iboratdir. Bunda o'z taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatimiz erishayotgan muvaffaqiyatlar islohotlarning "o'zbek modeli"ni hayotga tatbiq etishning amaldagi natijasi ekani shubhasiz.

Fuqarolik jamiyati haqidagi ilk tasavvurlar Aristotelning "Siyosat" asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etish orqali ta'minlanishi lozim<sup>1</sup>. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar 17 asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, T.Gobbs asarlarida takomillashtirildi. 18 asrga Buyuk farnsuz inqilobi davrida "Inson va fuqarolar huquqlari" deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshlandi. Chunki jamiyatning teng huquqli a'zolaro – "fuqarolar" tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarni anglay boshladilar. Sharqda Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud, bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'l-atvor xatti-harakatlar va qoida-me'yorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, eng qadimgi huquqiy madaniy yodgorlik – Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Hattoki mashhur mutafakkir olim Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan<sup>2</sup>. Bundan tashqari mamlakatimizda "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini izchil amalga oshirish doirasida aholi keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xalqimiz

<sup>1</sup> Sharifxo'jaev M., Shodiev N. O'zbekiston – konstitusiyaviy davlat. – T.: O'zbekiston, 2003. – 81-82 b

<sup>2</sup> Aristotel. "Organon". Moskva. 1994-y

tarixidan chuqur o'rin egallagan mustaqil ish olib boradigan, barqaror fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy va moddiy sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Ular O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining institutsional tuzilmasini tashkil etadi va fuqarolarning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar bajarishda faol ishtirokini ta'minlashga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, fuqarolik institutlarining huquq hamda qonun manfaatlarini himoya qilish kafolatlari ularga, teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishga oid tamoyillar mustahkamlab qo'yilgan. Bu borada qabul qilingan jami ikki yuzdan ortiq qonun hujjatlari mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini izchil rivojlantirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. 2008-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori qabul qilingandan so'ng bu jarayon yanada jadallashdi. Ushbu hujjatga ko'ra mamlakatimiz oliy qonunchilik organi huzirida Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatini boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda ushbu fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi tashkil etildi. Bizning birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan ilgari surilgan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi ushbu muhim sohada islohotlarning yangi bosqichini boshlab bergani unda davlat va jamiyat qurilishida fuqarolik institutlari ishtirokini izchil kengaytirishga qaratilgan qator dasturiy chora tadbirlar ko'zda tutilgan. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo'lishi kerak, chunki davlat – fuqarolik jamiyatning "yollanma xizmatkori". Hozirda Prezidentimiz

<sup>3</sup>Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 4-mart kuni 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmonni imzoladi. Konsepsiyani ustuvor yo'nalishlari deb quyidagilar belgilandi:

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish.
- fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tominidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish.
- davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoit yaratib berish

<sup>3</sup> 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'ZA, 2021-yil 4-mart.

-davlat ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish

-fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash<sup>4</sup>.

Chunonchi, mamlakatimizda fuqarolarning o'n mingga yaqin o'zini-o'zi boshqarish organlari ilgari mahalliy hokimiyat organlarining alohida huquqlari doirasiga kiritgan o'ttizdan ortiq vazifani bajarmoqda. Masalan, joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, jamiyatimizda ma'naviy-axloqiy qadryatlarni qaror toptirish, batkamol yosh avlodni tarbiyalash, aholi bandligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va hududlarni obodonlashtirish kabi ko'plab masalalarni hal etmoqda. Hozirgi demokratik jamiyatimizda mahalla aholini ijtimoiy himoya qilish, oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlik markaziga aylanmoqda. Fuqarolar yig'inlari huzurida tashkil etilgan maslahat markazlari tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etmoqda. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturi ishlab chiqilmoqda. Unda shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida qonunlarga rioya etish ustidan jamoatchilik monitoringini amalga oshirish, jamiyatimizda inson huquqlari madaniyatni rivojlantirishga oid yanada keng ko'lamli chora tadbirlar ko'zda tutilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston aholining ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, shaxs huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. Fuqarolar murojaatlari soni ko'paymoqda, ularda ko'tarilayotgan masalalar davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari tomonidan yordam va muammoga yechib topilmoqda.

Xulosa qilib aytganda fuqarolik jamiyati shaklidan demokratik jamiyatining shakllanishi mustaqil institutlarga fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga muvofiq qilib omillarni kompleks ravishda o'rganish va tahlil qilish, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllantirishning aholiga oid yillik milliy ma'ruzalar tayyorlashni amaliyotga joriy etish bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sharifxo'jaev M., Shodiev N. O'zbekiston – konstitusiyaviy davlat. –T.: O'zbekiston, 2003. –81-82 b
2. Aristotel. "Organon". Moskva. 1994-y
3. 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zA, 2021-yil 4-mart. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" M.
4. Qirg'izboev: Toshkent "Navro'z" nashriyoti, 2014

<sup>4</sup> "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" M. Qirg'izboev: Toshkent "Navro'z" nashriyoti, 2014